


**“Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi”  
MChJda 2026-yil 1-yarim yilligi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish  
bo‘yicha o‘tkazilgan “Anonim” so‘rovnoma natijalari yuzasidan**

**MA'LUMOT**

**Savol 1: Sizning yoshingiz:**

Yosh guruhi	Javoblar soni	Foiz (%)
18–24 yosh	30	24,8%
25–34 yosh	62	51,2%
35–44 yosh	21	17,4%
45 va yuqori	8	6,6 %
<b>Jami</b>	<b>121</b>	<b>100%</b>

1. Sizning yoshingiz:  
121 ответ



**Tahlil va xulosa:**

So‘rovnomada ishtirok etganlarning yosh tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, eng ko‘p qismni **25-34 yosh guruhi tashkil etadi-62 nafar yoki 51,2%**. Bu guruhning so‘rovnomada ustunlik qilishi muassasa xodimlarining asosiy qismini mehnat faoliyatining faol bosqichidagi yoshlardan iborat.


Shuningdek, **18-24 yosh guruh-30 (24,8%) nafar** hamda **35–44 yosh oralig‘idagi 21(17,4%) nafar**, 45 va undan yuqori yoshdagilarni umumiy sonning **6,6% ini tashkil etadi**.

## Savol 2: Sizning yoshingiz:

Javob varianti	Foiz(%)	Izoh
Ha	95,9	Xodimlarning mutlaq ko'pchiligi korrupsiyaga qarshi kurashish har bir fuqaroning vazifasi deb hisoblaydi
Bilmayman	2,5 %	Ayrim xodimlar bu masala bo'yicha aniq fikr bildirmagan.
Yo'q	0,8 %	Juda kam sonli xodimlar bu fikrga qo'shilmagan.
Boshqa javoblar	0,8 %	Qolgan ishtirokchilar boshqa variantlarni tanlagan.
<b>122 nafar ishtirokchi</b>	<b>100%</b>	<b>So'rovnoma natijalari</b>

### 2. Sizning jinsingiz:

121 o'tbet



### Tahlil va xulosa:

So'rovnomada ishtirok etuvchilarning **95,9%** xodimlarning mutlaq ko'pchiligi korrupsiyaga qarshi kurashish har bir fuqaroning vazifasi deb hisoblaydi va qo'llab-quvvatlagan.


So'rovnoma natijasiga ko'ra, xodimlarning korrupsiyaga qarshi fuqarolik mas'uliyati yuqorida darajada shakllanganligi ma'lum bo'ldi.

### Savol 3: Korrupsiya deganda nimani tushunasiz?

Javob varianti	Javoblar soni	Foiz (%)
Xizmat vakolatidan shaxsiy manfaat uchun foydalanish	17	13,9%
Poraxoʻrlik	14	11,5%
Tanish-bilishchilik va urugʻ-aymoqchilik	2	1,6%
Barchasi	88	73%
<b>Jami</b>	<b>122</b>	<b>100%</b>

#### 3. Korrupsiya deganda nimani tushunasiz?

122 ответа



#### Tahlil va xulosa:

Soʻrovnoma natijalariga koʻra, **88 (72,1%)** nafar xodimlarning korrupsiya tushunchasini keng maʼnoda qabul qilgan va "Barchasi" degan variantini tanlagan. Bu koʻrsatkich xodimlarning korrupsiyaning turli koʻrinishlaridan xabardor ekanligini va uni faqat bitta hodisa bilan chegaralab qoʻymasligini anglatadi.

Shuningdek, **17 (13,9%)** nafar korrupsiyani xizmat vakolatidan shaxsiy manfaat uchun foydalanish sifatida taʼriflagan. **14 (11,5%)** nafar esa korrupsiyani asosan poraxoʻrlik bilan tenglashtirgan. Tanish-bilishchilik va urugʻ-aymoqchilikni korrupsiyaning asosiy shakli deb hisoblaganlar **2 (1,6%)** nafarni tashkil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, soʻrovnomada ishtirok etgan xodimlarning korrupsiya toʻgʻrisidagi bilimlari yetarli darajada keng va chuqur ekanligini koʻrish mumkin.


Xodimlarning **73 %** korrupsiyaning barcha koʻrinishlarini-poraxoʻrlik, mansabdan suiisteʼmol qilish va urugʻ-aymoqchilikni birgalikda korrupsiya sifatida baholagani aholidagi huquqiy savodxonlikning oʻsib borayotganidan dalolat beradi.

#### Savol 4: Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir fuqaroning vazifasimi?

Javob varianti	Javoblar soni	Foiz (%)
Ha	117	96,4%
Yo‘q	2	1,6%
Bilmayman	2	1,6%
Kam	1	0,8%
Yaxshi	0	0,0%
<b>Jami</b>	<b>122</b>	<b>100%</b>

#### 4. Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir fuqaroning vazifasimi?

122 ответа



#### Tahlil va xulosa:

So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatadiki, so‘rovnomada ishtirok etgan **117 (96,4%)** nafar xodimlar korrupsiyaga qarshi kurashishni har bir fuqaroning vazifasi deb hisoblaydi. Bu ko‘rsatkich **“Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MChJda** fuqarolik mas’uliyatining yuqori darajada ekanligini bildiradi.


Faqat **2(1,6%)** nafar xodim salbiy javob bergan, yana **2 (1,6%)** nafar "Bilmayman" deb munosabat bildirgan. Bu natijalar aholi o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha ijobiy munosabat va yuksak fuqarolik ongi mavjudligini anglatadi.

### Savol 5: Fuqarolar korrupsiyaga qarshi qanday hissa qo'sha oladi?

Javob varianti	Javoblar soni	Foiz (%)
Huquqbuzarliklar haqida xabar berish	29	24,0%
Pora taklif qilmaslik	25	20,7%
Huquqiy madaniyatni oshirish	65	53,7%
Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda korrupsiya jinoyatini amalga oshirish	1	0,8%
Bu bo'yicha ma'lumotga ega emasman	1	0,8%
<b>Jami</b>	<b>121</b>	<b>100%</b>

5. Fuqarolar korrupsiyaga qarshi qanday hissa qo'sha oladi?

121 ответ



- Huquqbuzarliklar haqida xabar berish
- Pora taklif qilmaslik
- Huquqiy madaniyatni oshirish
- [ ] Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda korrupsiya jinoyatini amalga oshirish
- Бу бўйича маълумотга эга эмасман

#### Tahlil va xulosa:

So'rovnoma natijalariga ko'ra, so'rovnomada ishtirok xodimlarning eng ko'p qismi-**65 (53,7%)** nafar fuqarolarning korrupsiyaga qarshi hissasi sifatida huquqiy madaniyatni oshirishni ko'rsatgan. Bu yo'nalish eng samarali va uzoq muddatli chora sifatida baholanmoqda.

Huquqbuzarliklar haqida xabar berish-**29 (24,0%)** nafar xodimlar huquqbuzarliklar haqida xabar berishni, Pora taklif qilmaslik esa **25 (20,7%)** nafar xodimlar pora taklif qilmaslikni zarur chora sifatida belgilagan. Mazkur uch yo'nalish birgalikda umumiy javoblarning **98,4%** ni tashkil etadi.


Faqat **2 (1,6 %)** nafar bu bo'yicha ma'lumotga ega emasligini bildirgan, bu esa aholi o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurash usullari haqidagi xabardorlik darajasi yuqori ekanligidan dalolat beradi.

**Savol 6: Direksiyada korrupsiyaga qarshi choralar haqida qanchalik xabardorsiz?**

Javob varianti	Javoblar soni	Foiz (%)
To'liq	82	67,2%
Qisman	29	23,8%
Xabardor emasman	5	4,1%
Yo'q	4	3,3%
Ha	2	1,6%
<b>Jami</b>	<b>122</b>	<b>100%</b>

6. Direksiyada korrupsiyaga qarshi choralar haqida qanchalik xabardorsiz?

122 ответа



**Tahlil va xulosa:**

So'rovnoma natijalariga ko'ra, xodimlarning **82 (67,2%)** nafar "**Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi**" MChJda korrupsiyaga qarshi choralar haqida to'liq xabardor ekanliklarini bildirgan. Bu ko'rsatkich muassasada korrupsiyaga qarshi ishlash bo'yicha axborot tarqatish tizimining samarali ishlayotganidan dalolat beradi.

Xodimlarning **29 (23,8%)** nafari qisman xabardor ekanligini ta'kidlagan. Ushbu guruh uchun axborot etkazish mexanizmlarini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Faqat **5(4,1%)** nafar xodim xabardor emasligini bildirgan.


Umuman olganda, xodimlarning **91,0%** korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlardan tanish ekanligi muassasada ushbu yo'nalishdagi ishlarning samarali tashkil etilganligini tasdiqlaydi.

### Savol 7: Korrupsiya haqida xabar berishga nima to'sqinlik qiladi?

Javob varianti	Ulush (%)	Taxminiy soni
Boshqa	59,2%	61 nafar
Ta'qibdan qo'rqish	25,2%	26 nafar
Ishni yo'qotishdan qo'rqish	13,6%	14 nafar
Yo'q	2%	2 nafar
<b>Jami</b>	<b>100</b>	<b>103</b>

7. Korrupsiya haqida xabar berishga nima to'sqinlik qiladi?

103 ответа



#### Tahlil va xulosalar

##### Asosiy to'siq — "Boshqa" sabablari (59,2%)

So'rovnomada ishtirok etgan xodimlarning 61 nafari korrupsiya haqida xabar berishga to'sqinlik qiluvchi sabablar sifatida "boshqa" variantini tanlagan. Bu holat so'rovnomada aks ettirilmagan muhim omillarning mavjudligini ko'rsatadi va qo'shimcha chuqurroq tadqiqot o'tkazish zaruratini belgilaydi.

##### Ta'qibdan qo'rqish (25,2%)

So'rovnomada ishtirok etgan xodimlarning 26 nafari ta'qibdan qo'rqishni asosiy to'siq sifatida ko'rsatgan.

##### Ishni yo'qotishdan qo'rqish (13,6%)

14 nafar xodim ish joyini yo'qotish xavfini asosiy sabab sifatida ko'rsatgan. Bu ish beruvchiga bog'liqlik va iqtisodiy zaiflikning korrupsiyaga qarshi kurashda jiddiy to'siq ekanligini tasdiqlaydi.

#### Tavsiyalar

-Xabardorlar himoyasini kuchaytiruvchi qonunchilik mexanizmlarini takomillashtirish;

-Anonimlik kafolatlanadigan xabar berish kanallarini tashkil etish;

-Korrupsiya faktlarini xabar berganlar uchun huquqiy va ijtimoiy muhofaza tizimini yaratish;


-"Boshqa" toifasidagi sabablarni aniqlash maqsadida qo'shimcha sifatiiy so'rovnoma o'tkazish.

## Savol 8: Korrupsiya ko'proq qaysi sohada uchraydi?

Javob varianti	Javoblar soni	Foiz (%)
Ishga qabul qilish	18	17,6%
Lavozimga ko'tarish	8	7,8%
Mukofotlash	16	15,7%
Davlat xaridlari	60	58,9%
Qonunchilikni kuchaytirish	0	0,0%
Ta'lim va ongni oshirish	0	0,0%
<b>Jami</b>	<b>102</b>	<b>100%</b>

8. Korrupsiya ko'proq qaysi sohada uchraydi?

102 ответа



### Tahlil va xulosa:

So'rovnoma natijalariga ko'ra, so'rovnomada ishtirok etgan xodimlarning **60 (58,8%)** nafari-korrupsiya eng ko'p davlat xaridlari sohasida uchrashini ta'kidlagan.

Bu sohada shaffoflik va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish bo'yicha alohida e'tibor talab qiladi, chunki davlat xaridlarida moliyaviy aylanma yuqori bo'lib, bu esa korrupsiya uchun qulay muhitni yaratishi mumkin.

Keyingi o'rinlarda ishga qabul qilish sohasini ko'rsatgan xodimlar-**18 (17,6%)** nafar mukofotlash sohasini ko'rsatganlar, **16 (15,7%)** nafari, lavozimga ko'tarishni ko'rsatganlar **8 (7,8%)**ni tashkil etgan.


Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, davlat xaridlari va kadrlar boshqaruvi sohalari muassasada korrupsiya xavfining eng yuqori ehtimoli bo'lgan yo'nalishlar hisoblanadi. Ushbu sohalarda ichki nazoratni mustahkamlash, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va shaffof tanlov mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

### Savol 9: Korrupsiyaning oldini olish choralari samaradorligini baholang.

Baholash varianti	Javoblar soni	Foiz (%)
Yaxshi	79	65,8%
Qoniqarli	33	27,5%
Qoniqarsiz	5	4,2%
Variant	2	1,7%
Tushuncha yo'q	1	0,8%
<b>Jami</b>	<b>120</b>	<b>100%</b>

#### 9. Korrupsiyaning oldini olish choralari samaradorligini baholang.

120 ответов



#### Tahlil va xulosa:

So'rovnoma natijalariga ko'ra, xodimlarning aksariyati -79 (65,8%) nafari-muassasada korrupsiyaning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni "Yaxshi" deb baholagan. Bu ko'rsatkich amalga oshirilayotgan islohotlar va profilaktika ishlarining xodimlar tomonidan ijobiy qabul qilinayotganligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, 33 (27,5%) nafar xodimlar choralarni "Qoniqarli" darajada baholagan. "Yaxshi" va "Qoniqarli" baholarini birlashtirgan holda, xodimlarning 93,3% muassasadagi korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni ijobiy baholagan, bu esa umumiy manzaraning qoniqarli ekanligini ko'rsatadi.


Faqat 5(4,2%) nafar xodimlar choralarni "Qoniqarsiz" deb baholagan. Ushbu guruhning mulohazalarini o'rganish va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qo'shimcha tadbirlar ko'rish maqsadga muvofiq. Umuman olganda, so'rovnoma natijalari muassasada korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha olib borilayotgan ishlarning samaradorligi yuqori darajada ekanligini bildiradi.

### Savol 10: Tashkilotingizda manfaatlar to'qnashuvi holatlari mavjudmi?

Javob varianti	Javoblar soni	Foiz (%)
Ha	9	7,5%
Qisman	15	12,5%
Yo'q	94	78,3%
Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga	2	1,7%
<b>Jami</b>	<b>120</b>	<b>100%</b>

10. Tashkilotingizda manfaatlar to'qnashuvi holatlari mavjudmi?

120 ОТВЕТОВ



#### Tahlil va xulosa:

So'rovnoma natijalariga ko'ra, **94(78,3%)** nafar xodimlarning tashkilotda manfaatlar to'qnashuvi holatlari mavjud emasligini bildirgan. Bu ko'rsatkich muassasada xodimlar o'rtasida xizmat majburiyatlari va shaxsiy manfaatlar o'rtasidagi chegara aniq belgilanganligini ko'rsatadi.

Biroq, **15(12,5%)** nafar xodim manfaatlar to'qnashuvini qisman sezganligini, **9(7,5%)** nafar xodim esa bunday holatlar mavjudligini to'g'ridan-to'g'ri tasdiqlaganligi, muassasada manfaatlar to'qnashuviga oid xavf omillariga e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, xodimlarning **20,0%** manfaatlar to'qnashuvini his etgani muassasada xodimlarning mansab vakolatlari va shaxsiy manfaatlarini ajratib ko'rsatuvchi ichki me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish, shuningdek, manfaatlar to'qnashuvini e'lon qilish tartibi bo'yicha tushuntirish ishlarini kuchaytirish zarurligini anglatadi.

**Komplayens-nazorat va rezidentlar bilan  
huquqiy hamkorlik o'rnatish xizmati boshlig'i**

